

**TA'LIM MUASSASALARINING BOSHQARUVI MUTAXASISLIK MAGISTRANTLARNING MAGISTRLIK DISSERTATSIYA  
MAVZULARI**

<b>Nº</b>	<b>Ilmiy ish mavzusi</b>	<b>Izoh</b>
1.	Oliy kasbiy ta'lif tizimida boshqaruv bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari.	Pedagog barcha vaziyatlarda ham o'z faoliyatini muvaffaqiyatli olib borishi uchun doimiy ravishda o'z bilim va mahoratini oshirib, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari, ilg'or xorijiy pedagogik tajribalar, metod va usullarni muntazam o'r ganib, pedagogik kasbiy bilim va ko'nikmalar hamda shaxsiy sifatlarga ega bo'ladi va uning amaliy faoliyati davomida zarur kompetensiyalari rivojlanadi. Har qanday ilmiy tadqiqotni amalga oshirishning metodologiyasi tanlab olinadigan g'oyalari, nazariya va yondashuvlar asosida o'rganiladigan hodisa va jarayon mohiyati talqin qilinishida o'z ifodasini topadi, obyekt to'g'risidagi tasavvurlar modellashtiriladi, uni samarali rivojlantirishning mexanizmlari, vosita va pedagogik shart-sharoitlari aniqlanadi.
2.	Yangi O'zbekistonda nodavlat ta'lif tashkilotlari tizimida HR menejmentni joriy etish mexanizmi.	Nodavlat ta'lif xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish, ta'limning yuqori sifatini ta'minlashda davlat va nodavlat ta'lif muassasalari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini yaratish, shuningdek, nodavlat ta'lif xizmatlari ko'rsatish sohasidagi yuridik shaxslar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsad qilib olingan. bitiruvchilar quyidagilar borasida bilim va ko'nikmaga ega bo'ladilar: inson resurslarini boshqarishning asosiy omillari; tashkilotda xodimlarni boshqarishning zamonaviy moyilliklari, asosiy vazifalari, modeli va usullari; mehnat qonunchiligining asoslari; inson resulari boshqaruvining asosiy ustuvor tuzilmasini aniqlay bilish; zamonaviy kadr menejmentini yo'nalishi va moyilligini tahlil qilish; mehnat shartnomalari va fuqarolik shartnomalarini farqiga borish; mehnat shartnomalarini tuzish va ularni bekor qilish; inson resurslarini boshqarishning usuli va modellari bo'yicha kerakli mahoratga ega bo'lish; korxonaga xodim qabul qilish va ularni baholash usullari; xodimlarni ruhlantirish (motivatsiya berish) sistemasining asosiy tamoyillari; trening o'tqazishda vakolatlarni tuzish usullari.
3.	Umumta'lif maktablarida projekt menejmentni tadbiq etish usullari	Zamonaviy menejment bozor iqtisodiyoti sharoitlarida faoliyat yurituvchi firmalar, korxonalar, tashkilotlarni boshqarishning vujudga kelgan tizimi sifatida ularning ishlab chiqarish — xo'ja-lik faoliyatining samarali rivojlanishi va faoliyat yuritishi uchun zarur sharoitlar yaratilishini ko'zda tutadi. Project menejment - Loyihani boshqarish - bu kelishilgan parametrlar doirasida loyihani qabul qilish mezonlariga muvofiq muayyan loyiha maqsadlariga erishish uchun jarayonlar, usullar, ko'nikmalar, bilim va tajribalarni qo'llash. Loyiha boshqaruvi yakuniy natijalarga ega bo'lib, ular cheklangan vaqt va byudjet bilan cheklanadi.